

JIZZAX VILOYATI HUDUDA TARQALGAN NOYOB O'SIMLIKLAR

Xoldorova G.M.

*Jizzax Davlat pedagogika universiteti Tabiiy fanlar fakulteti Geografiya va
iqtisodiy bilim asoslari kafedrası v.b.dotsenti,g.f.f.d.,PhD
xoldorovaguli@gmail.com.*

Abduhoshimova N.B.

Jizzax Davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: *Insoniyatning salbiy ta'siri natijasida o'simlik qoplamlari va turlarining soni kamayib bormoqda. Odamlar xo'jalik faoliyatida o'simliklar dunyosiga juda katta ta'sir etadi. Insoniyatning o'simliklarga salbiy ta'sirlari natijasida Yer yuzida o'simliklar qoplami qisqarib, turlar tarkibi kamayib bormoqda. Ushbu maqolada Jizzax viloyati hududida tarqalgan noyob o'simliklarning haqida ma'lumotlar berilgan. Tadqiqotda hududning tabiiy-geografik sharoiti va o'simliklar genofondini asrash masalalari yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *madaniy o'simliklar, Jizzax viloyati, Nurota qo'riqxonasi, genofond, o'simlik turi, tabiat, Baxmal, Zomin, yovvoyi ajdodlar, seleksiya, biologik xilma-xillik.*

UNIQUE PLANTS DISTRIBUTED IN JIZAKH REGION

Abstract: *As a result of the negative impact of humanity, the number of plant covers and species is decreasing. Humans have a great impact on the plant world in their economic activities. As a result of the negative impact of humanity on plants, the plant cover on Earth is decreasing and the composition of species is decreasing. This article provides information about rare plants distributed in the Jizakh region. The study covers the natural and geographical conditions of the region and the issues of preserving the plant gene pool.*

Keywords: *cultivated plants, Jizakh region, Nurota reserve, gene pool,*

plant species, nature, Bakhmal, Zamin, wild ancestors, selection, biodiversity.

KIRISH Tabiatni, shu jumladan uning ajralmas qismi bo'lgan o'simliklar dunyosini muhofaza qilish ayni zamonning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Respublikamizning xilma- xil, foydali turlarga boy, bebaho o'simliklarni muhofaza qilish bizning muqaddas burchimizga aylanmog'i lozim. Biz faqat viloyatimizdagi foydali o'simliklarni emas, balki O'zbekiston hududida o'sayotgan har bir turni asrab avaylashimiz va ularni kelgusi avlodlarga hozirgisidan ham a'lo darajada in'om etishimiz kerak.

Insoniyatning salbiy ta'siri natijasida o'simlik qoplamlari va turlarining soni kamayib bormoqda. Odamlar xo'jalik faoliyatida o'simliklar dunyosiga juda katta ta'sir etadi. Odamlarning o'simliklarga salbiy ta'sirlari natijasida Yer yuzida o'simliklar qoplami qisqarib, turlar tarkibi kamayib bormoqda. Ma'lumotlarga qaraganda hozirgi vaqtda dunyoda o'rmonlarning umumiy maydoni 50% ga qisqarib ketgan. O'zbekiston o'rmon xo'jaligi fondi maydoni 9119 ming gektar bo'lib, uning o'rmon bilan qoplangan maydoni 2776 ming gektarni tashkil etadi.

Tog' yonbag'irlaridagi o'rmonlarni kesish ancha kuchaygan, shuning ushuni hukumatimiz tashabbusi bilan yog'ochbop terakzorlarni ko'paytirish umumxalq harakati boshlandi. Insonning suvdan noto'g'ri foydalanishi sababli Orol dengizining sathi pasayib ketdi, natijada zaharli chiqindilar bilan ifloslangan tuproq o'simliklariga salbiy ta'sir etmoqda. Daryo bo'ylaridagi to'qaylar quriy boshladi, ilgari hosildor o'tloq va pichanzorlarning mahsuldorligi keskin o'zgardi. O'rmonlar yong'in va suv bosishlaridan ham katta zarar ko'radi. Turistlar ham o'rmonlarga katta ziyon yetkazdilar, ular chodir qurish uchun bir necha yosh daraxtlarni kesadilar. Chorva mollarini beto'xtov boqish oqibatida foydali o'tlar kamayib, ular o'rnini chorvachilik uchun foydasiz o'simlik turlari egallamoqda, ayniqsa tekisliklardagi o'tloqzorlarda sun'iy suv omborlari qurilib, o'simliklar qoplamiga katta zarar keltirmoqda. Inson dorivor o'simliklardan keng foydalanadi, hozirgi davrda dorivor o'simliklarning 1500 dan ortiq turi dunyo miqyosida foydalaniladi, kelajakda ularning turlari yana ham ortadi. Shuning

uchun ham ba'zi bir dorivor o'simliklar doimiy ravishda yig'ilishi natijasida ularning zahiralari kamayib ketmoqda.

Shunday qilib, odamlarning o'simliklar dunyosiga ta'siri natijasida ko'pchilik o'simliklar kamyob yoki yo'qolib borayotgan turlarga aylanmoqda. O'simliklar hayotiga tirik organizmlar ham ta'sir ko'rsatadi. Odamlar o'simliklarga 2 xil munosabatda ta'sir ko'rsatadi, ularning o'simliklarga ta'sirini ijobiy va salbiy ta'sirlarga ajratish mumkin. Ijobiy ta'sirlarga katta maydonlarda xilma-xil madaniy o'simliklarni ekishi va yuqori hosil olishi, o'rmonlarni tiklash, ochiq joylarga daraxtlar ekish, shahar va qishloqlarni ko'kalamzorlashtirish kabilar kiradi. Salbiy ta'sirlarga o'rmonlarni kesish, o'simliklarni ildizi, tugunagi va ildizpoyasi bilan yig'ish va o'rish, mol boqish, suv omborlarini qurish, yangi yerlarni o'zlashtirish, tashqi muhitni zararli kimyoviy moddalar bilan ifloslanishi kabilar kiradi.

Mustaqil respublikamiz hukumati muntazam ravishda o'simliklar dunyosini muhofaza qilish masalasiga e'tibor berib kelmoqda. Shu munosabat bilan tabiatni, shu jumladan, o'simliklar dunyosini muhofaza qilish borasida respublikamizda qator tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Jumladan, Respublikamizda Tabiatni muhofaza qilish borasida qator tadbirlar amalga oshirildi. Tabiatni muhofaza qilish qo'mitasi tashkil etildi. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlisi 1997 - yil 26 dekabrda "O'simliklar dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish" to'g'risidagi qarorni tasdiqladi. Kamyob o'simliklarni asrab avaylash maqsadida hukumat qarorlari asosida O'zbekiston Respublikasi "Qizil kitobi"ni nashr etish yo'lga qo'yildi. Bularning hammasi ona tabiatni va uning o'simliklar dunyosini muhofaza qilishga qaratilgan. O'simliklar dunyosini muhofaza qilish bilan bir qatorda ulardan oqilona foydalanish va mahsuldorlikni oshirish, qayta tiklash ishlari olib borilmoqda.

Shu jumladan, o'rmonlardan foydalanish va o'rmon xo'jaliklari ishi ilmiy asosda yo'lga qo'yildi. Yaylovlar O'zbekiston hududida 22.8 mln gektar maydonni tashkil etadi. Hozirgi davrda o'tloqlardagi 700 ga yaqin yovvoyi

o'simliklar o'rganilib, ulardan oqilona foydalanish usullari ishlab chiqilmoqda. Bunda tabiiy o'tloqlarning hosildorligini oshirish muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Respublikamizda atrof muhitni zararli, zaharli va boshqa ifloslantiruvchi moddalardan tozalovchi va atmosfera havosini turli foydali moddalar (fitotsidlar) bilan boyituvchi o'simliklar o'rganila boshlandi. Natijada, sanitar zonalar va katta yo'llarning chetlariga eqiladigan o'simlik turlari aniqlandi. Sayyoramizda biologik xilma - xillikni saqlash maqsadida turli mamlakatlarda odamlarning tabiatga salbiy ta'sirini cheklash maqsadida tashkil etilgan. Hozirgi vaqtda ana shunday hududlarga respublikamizdagi qo'riqxonalar, buyurtmaxonalar, milliy bog'lar va tabiat yodgorliklari kiradi.

Viloyatimizda hududlarida tarqalgan noyob o'simliklarni muhofaza hududlar hisoblangan Nurota hamda Zomin davlat qo'riqxonalarining faoliyatini izchil o'rganish, undagi o'simliklar olami bilan tanishish, noyob turlarini aniqlash va ular haqida ma'lumotlar yig'ish va noyob turlarini organish hamda muhofaza choralarini ishlab chiqish dolzarb muammolaridan xisoblanadi. Zero keyingi yillarda o'lkamiz florasidagi 138 tur O'zbekiston Respublikasining Qizil kitobiga kiritilgan. Ulardan 48 tasi Nurota Davlat qo'riqxonasida 21 ta turi Zomin davlat qo'riqxonasida o'sayotganligi adabiyotlardan ma'lum. Biroq qo'riqxonalarda ushbu noyob turlarning qay ahvolda ekanligi va aniq lokalizatsiyasi haqida to'liq ma'lumotlarga ega emasmiz. Viloyatimiz qo'riqxonasida tarqalgan noyob tur o'simliklarini saqlash va ularning muxofazasi xaqida chora tadbirlar ishlab chiqish shu kunning dolzarb muammolaridan xisoblanadi.

Tabiatga nisbatan shavqatsiz munosabatlar o'simliklar sonining qisqarib borishiga va noyob turlarining keskin kamayishiga olib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasida 4500ga yaqin o'simliklar turi bo'lib, ular orasida kamyob, endemik va reлект turlari soni 400 tani tashkil qiladi. Bu esa umumiy o'simliklar sonining 10-12 foiziga ega. Tabiat muxofazasi borasida viloyatimiz yetakchi o'rinlardan birini tashkil etadi. Zomin qo'riqxonasidagi olib borilayotgan ishlarni bunga namuna qilib ko'rsatishimiz mumkin. Qo'riqxonada mavjud o'simliklar va

xayvonlar qattiq muhofaza ostiga olingan bo'lib, hozirgi kunda qo'riqxonada 21 tur O'zbekiston "Qizil kitob"iga o'simlik o'sadi. Qo'riqxonalarda o'simliklar va ularning noyob turlari haqida aniq ilmiy ma'lumotlarni to'plash mavzunnig bosh maqsadlaridan hisoblanadi. Ushbu tadqiqot ishida qo'riqxonadagi noyob turlarni imkon qadar o'rganish va ularning bugungi ahvoli haqida ma'lumotlarga ega bo'lish orqali noyob turlarning himoya choralari ichlab chiqishga asos solilnadi.

Jizzax viloyatini tabiiy-geografik o'rganish natijasida viloyatning o'simlik va hayvonot dunyosining rivojlanishi uning geomorfologik tuzilishiga, iqlimiy sharoitiga, gidrografik sharoitiga va tuproqlariga bog'liqligi aniqlandi. Tabiiy-geografik jihatdan viloyatning o'simlik dunyosi tekisliklardan balandliklarga tomon o'zgarib boradi. Quyida viloyatda o'simlik dunyosining tarqalishini nashr qilingan manbalar (Jizzax viloyati asosiy tuproqlaridagi o'simlik qoplami kartasi, Sektimenko V.Ye., Ismanov A.J., 2005) va shaxsiy manbalar asosida beramiz

Qizilqum cho'llari, Aydarko'l va Tuzkon ko'llarining janubida cho'l-qumli tuproqlarda juzg'un, illoq, saksovul va efemer o'simliklar tarqalgan. Arnasoy ko'lining janubiy sohillarida sho'rxoqlardagi gipsli tuproqlarda sho'ra, yulg'in, shuvoq va efemer o'simliklar, Mirzacho'l tekisligining g'arbidagi tog'oldi tekisliklari bilan to'tash hududlarda o't o'simliklar, gipsli tuproqlarda va sho'rxoklarda sho'rga moslashgan buta o'simliklar, sho'ralar keng tarqalgan. Mirzacho'l tekisligining shimoli-g'arbida och tusli bo'z tuproqlarni efemerlar, yantoq, shuvoq va kovraklar egallagan bo'lsa, bo'tun Mirzacho'l tekisligi hududlardagi sug'oriladigan o'tloq, bo'z-o'tloq tuproqlarda yantoq, sho'ra, yulg'in, qamish va boshqa o'simliklar tarqalgan. Nurota, Qo'ytosh, G'o'bdin tog'larining yonbag'irlarida, Marjonbuloq balandliklarida, G'allaorol tog'oralik botig'ida va Molguzar tog'larining shimolidagi Mirzacho'l tekisliklariga to'tash hududlardagi och tusli bo'z tuproqlarda efemerlar, shuvoq, qo'ziquloq, oqquvray o'simliklari ba'zan chala butalar uchraydi.

Nurota va Quytosh tog'larining shimoliy qismidagi tekisliklardagi to'q tusli bo'z tuproqlarda shuvoq, bug'doyiq, betaga, tog'arpa o'simliklari guruhi, tog'liklarning janubiy va G'o'bdin tog'larining shimolidagi Qo'ytosh-Nurota

botig'idagi to'liqinsimon tekislik hududlarida, lalmi yerlardagi tipik bo'z tuproqlarda shuvoq, yantoq, kovul, boychechak, butako'z va efemer o'simliklar guruhi tarqalgan. Qo'ytosh tog'ligining sharqiy qismidagi tekislik qismlarda, Molguzar, Zomin tog'larining shimolidagi tog' oldi tekisliklaridagi tipik bo'z tuproqlarda shuvoq, betaga, bug'doyiq, lolaqizg'aldoq va efemer o'simliklar guruhi tarqalgan bo'lsa, Sangzor daryo vodiysi, Molguzar, Zomin tog'larining tog'oldi tekisliklaridagi to'q tusli bo'z tuproqlarda shuvoq, betaga, bug'doyiq, madaniy o'simliklar va efemer o'simliklar keng maydonlarni egallaydi. Viloyatning janubiy qismidagi tog'li mintaqalardagi jigar rang tuproqlarda archa va qurg'oqchil o'simliklar guruhlari tarqalgan. Ushbu tog' mintaqasi o'simliklari relefning balandlashishi, tuproq va iqlimning o'zgarishi bilan bog'liq holda turlicha tarqalgan. Zomin tog'lari, Chumqortog'ning shimoliy qismlari va Molguzar tog'larining janubiy qismlari qalin archazorlar bilan banddir. Bu archazorlar balandlikka ko'tarilgan sari zichlashib boradi. Viloyatning tog'li qismlarida archaning uch turi Zarafshon (qora archa), Sovur va Turkiston archasi tarqalgan.



1-rasm Adir o'simliklari

O'zbekistonda 4100 dan ortiq o'simlik turlari tarqalgan bo'lsa, Jizzax viloyati hududida 2800 dan ortiq o'simlik turlari mavjud. Shundan O'zbekiston «Qizil kitobi»ga kiritilgan o'simlik turlari 33 ta ni tashkil qiladi. Keyingi vaqtlarda Aydar

ko'llar tizimidagi suv sathining ko'tarilishi natijasida va tuproq sho'rlanishining oshib borishi munosabati bilan Forish cho'llarining o'simlik qoplami ham o'zgarib sho'ra tipidagi o'simlik turlari ko'payib bormoqda. Jizzax viloyati hududda tashkil etilgan "Nurota" qo'riqxonasida 78 oiladan 814 xil yuqori o'simliklar aniqlangan. Eng ko'p turlar soni bilan murakkabguldoshlar (96 tur), dukkaklilar (78) va boshqalar (76) namoyon bo'ladi. qadimiy o'rta-er dengizi turlari, asosan tog'li O'rta Osiyo, shu jumladan 24 xil endemik turlar ko'pchilikni tashkil qiladi.

Nurota florasining eng yorqin endemigi och-yashil anura, o'rta tog' qatlamlarining tosh-shaqal qiyaliklarida ko'p uchraydigan, murakkabguldoshlar oilasining yagona endemik turi hisoblanadi. Qo'riqxonada endemik o'simliklar labguldoshlardan ko'rimsiz qo'ziquloq, tumtoq marmalak, Tog'buzoq va uchpoyali oqtusha, murakkabguldoshlardan Shurovskiy karragi, Nurota o'lmaso'ti xam ko'p uchraydi.

O'zbekiston «Qizil kitobiga» qo'riqxona florasining 29 turi shu jumladan 3 tur shirach, 3 tur Anzurpiyoz, 5 tur lola, 5 tur astragal va boshqalar kiritilgan bo'lib qo'riqxona florasida o'tsimon o'simliklar ko'pchilikni tashkil qiladi, bular ayniqsa xayotiy davrlari qisqa, iliq va namli baxori va davomli issiq quruq yozi bo'lgan O'rta Osiyoning iqlimiga zo'r moslashgan bir yillik efemerlar va ko'p yillik efemeroidlar. Butalar va yarim butalar o'ziga xos xayot shaklini tashkil qiladi. So'g'd shuvog'i va ingichka yorilgan lepidolofa, Nurota lepidolofasi, o'ziga xos tikanli yostiqsimon o'simliklar, ya'ni karmakdoshlar tog' kserofitlari (kirpiutlar, astragallar va boshqalar) shular jumlasidandir. Eng uzoq va baland butazorlarda bir necha yuz yilliklar avval bu erlarda mavjud bo'lgan, xozirda butunlay kesib tashlangan

XULOSA

Tabiiy boyliklar bu insoniyatning yashashi va xo'jalik faoliyati uchun zarur bo'lgan hamda xilma-xil ehtiyojini qondiruvchi yagona manbadir. Ayniqsa o'simlik olami bizga toza havo yetkazib beruvchi "fabrika" hisoblanadi. Keyingi yillarda sanoatning rivojlanishi antropogen omillarning ta'siri tufayli tabiat ham kuchli tanazulga yuz tutdi. Tabiat ne'matlaridan nooqilona foydalanish oqibatida

ayniqsa o'simliklardan, ayrim o'simlik turlarining yo'qolib ketishiga yoki tog'' va tog'' oldi hududlarida yaylov sig'iminin yo'qoriligi cho'llanish jarayonin^g kuchayishiga bu esa sel hodisasining kuchayishi kabi omillarning kelib chiqishiga sabab bo'lmoqda. Respublikamizning janubiy - sharqiy qismi tog''lardan, shimoliy – sharqiy qismi esa tekisliklardan iborat bo'lganligi uchun uning iqlim sharoiti, tuproq, o'simlik va hayvonot dunyosi ham turlicha. Respublikamiz havosining musaffo, xushmanzarali yerlarining ko'p bo'lishi avvalo yashil o'simliklarga ayniqsa o'rmonlarga bo'liq. Aholining o'rmonlarga ayniqsa mevali (yong'oq, pista, bodom, do'lana va x.z.) va dorivor (zira, piyoz, anzur, qoraqand, oq qayin, etmak va boshqa) o'simliklarga nisbatan notog''ri munosabatda bo'lishi tufayli ular kamayib ketmoqda. Ayniqsa viloyatimizning hushmanzara tog''li hududlarida dam oluvchilar, sayyohlar soni yildan-yilga o'sib bormoqda shuning uchun ularga hamda o'quvchilarga o'simliklarni nobud qilmaslik, ularning mevasini urug''ini ruxsatsiz yig'maslik kabi tushuntirish va targ'ibot ishlarini keng olib borish zarur. Shu sababli bunday tadbirlarni keng ommaga mahallalarda, maktablarda ko'chat o'tqazish oyligi va kunligi bahorda, ota-bobolarimiz an'analariga rioya qilib, bog'lar, tokzorlar bunyod etishni odat tusiga kiritish lozim.

Yuqorida ko'rib o'tganimizdek viloyatimizning tog'li qismida tarqalgan noyob o'simliklarni muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan qo'riqxonalar va ularda hozirgi kunda bir qancha noyob o'simliklar muhofaza qilinayotganligi va ularning ayrimlariga misollar keltirdik.

Xulosa qilib aytganda viloyatimizning nafaqat tog''li hududlari balki tekislik hududlarida ham nayob o'simliklarni muhofaza qilish uchun maxsus muhofaza maskanlari tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ashurmetov O, Pratov O', Yo'ldoshev A. “Красная книга” Республики Узбекистан (I растения и грибы) //Ekologiya xabarnomasi 2006 y. №4 7-9 bet.

2. Абдазов, Ж. (2020). МИРЗАЧУЛ ТУПРОК;
РЕСУРСЛАРИ МЕЛИОРАТИВ ХОЛАТИНИ
ЯХШИЛАШНИНГ ТАБИИЙ ГЕОГРАФИК АСОСЛАРИ. Архив
Научных Публикаций JSPI.
3. Saparov, K., Yakhshieva, Z., Kholdorova, G., Sangirova, M., Dadaeva, G., Rajabov, K., Asallaev, U., & Safarova, N. (2024). Advanced Materials for Pollution Control that Integrate Engineering Science with Environmental Conservation. *Natural and Engineering Sciences*, 9(3), 77–87.
4. Ruzikulova, O., Sabitova, N., & Kholdorova, G. (2021). The role of GIS technology in determining irrigated geosystems. In *E3S Web of Conferences* (Vol. 227, p. 03004). EDP Sciences.
5. . Холдорова, Г. М. (2025). ИҚЛИМ ЎЗГАРИШНИНГ
ГЕОТИЗИМЛАРГА ТАЪСИРИ (МИРЗАЧЎЛ ТАБИИЙ ЎЛКАСИ
МИСОЛИДА). Экономика и социум, (8 (135)), 774-778.
6. Xoldorova, G. (2021). МИРЗАЧЎЛДА АТРОФ-МУҲИТНИ
МОНИТОРИНГ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ. Журнал Педагогика и
психологии в современном образовании
- 7.. Hakimov Q., G'o'dalov M. “Jizzax viloyati tabiiy geografiyasi”
Jizzax. 2007 y. 3-10 bet.